

O‘ZBEKISTONDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISH DINAMIKASI

Ravshanova Sabina Jamoliddin qizi

Diplomat University

1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanish holati, muammolari va istiqbollari 2018-yildan 2025-yilgacha bo‘lgan davr doirasida o‘rganildi. Tahlillarga ko‘ra, sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yildan-yilga ortib, iqtisodiyotda muhim o‘rin egallab bormoqda. Xususan, 2018-yilda xizmatlar sohasining hajmi 19 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 65 milliard dollarga yetdi. 2025-yil uchun esa 82 milliard dollarlik hajm va 15 foizlik o‘sish prognoz qilinmoqda. Ish davomida statistik ma‘lumotlar, davlat dasturlari va soha bo‘yicha tahlillar asosida xizmatlar sohasining tarkibiy tuzilmasi, asosiy yo‘nalishlari (savdo, transport, aloqa, turizm va boshqalar) o‘rganilib, iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri baholandi. Annotatsiyada xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ham ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: *Xizmatlar sohasi, iqtisodiy o‘sish, savdo xizmatlari, transport va logistika, turizm sohasi, raqamli xizmatlar, raqobatbardoshlik, innovatsion xizmatlar*

ABSTRACT

This article examines the development status, problems and prospects of the services sector in the Republic of Uzbekistan for the period from 2018 to 2025. According to the analysis, the sector's share in GDP is increasing year by year and is taking an important place in the economy. In particular, in 2018, the volume of the services sector amounted to 19 billion US dollars, while in 2024 this figure reached 65 billion dollars. For 2025, a volume of 82 billion dollars and a growth of 15% are forecast. During the work, based on statistical data, state programs and industry analysis, the structural structure of the services sector, its main directions (trade, transport, communications, tourism, etc.) were studied, and their impact on economic development was assessed. The abstract also puts forward proposals and recommendations for further development of the services sector.

Keywords: *Services sector, economic growth, trade services, transport and logistics, tourism sector, digital services, competitiveness, innovative services.*

KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqyosida xizmatlar sohasi iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Global iqtisodiyotda xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yil sayin ortib borayotganligi bejiz emas. Xizmatlar sohasi nafaqat iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash, balki bandlik darajasini oshirish, aholi farovonligini yuksaltirish va innovatsiyalarni joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, transport-logistika, turizm va raqamli xizmatlarning kengayishi xizmatlar sohasining ahamiyatini yanada oshirib yubordi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari, raqamli transformatsiya siyosati va xalqaro hamkorlikning kengaytirilishi xizmatlar sektorining jadal sur'atlarda rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Jumladan, 2018-yildan boshlab mazkur sohada kuzatilayotgan o'sish tendensiyalari, yalpi ichki mahsulotdagi ulushining ortishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda eksport salohiyatining oshib borishi bu yo'nalishda erishilayotgan ijobiy natijalarning yorqin dalilidir.

Shu bilan birga, xizmatlar sohasining to'laqonli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan bozor infratuzilmasining takomillashuvi, xizmatlar sifatini oshirish, zamonaviy raqobatbardosh innovatsion xizmatlarni joriy etish va kadrlar salohiyatini rivojlantirish kabi masalalar dolzarigicha qolmoqda. Shu boisdan ham ushbu ilmiy ishda O'zbekistonda xizmatlar sohasining holati, mavjud muammolar, rivojlanish istiqbollari hamda statistik tahlillar asosida soha dinamikasiga baho beriladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – xizmatlar sohasini yanada takomillashtirish uchun ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining xizmatlar sohasini rivojlantirishga doir farmon va qarorlari ushbu yo'nalishdagi asosiy strategik hujjatlar hisoblanadi. Jumladan: **PF–5992-son Farmon** (“2020–2023-yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”) xizmatlar sektorining ichki yalpi mahsulotdagi ulushini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi **2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida** xizmatlar sohasini raqamlashtirish, bank-moliya, turizm, ta'lim, tibbiyot va axborot texnologiyalari yo'nalishlari alohida e'tirof etilgan.

Karimov T. va Raximov A (2021). Ushbu darslikda xizmatlar savdosining xalqaro tarmoqlari va O'zbekiston iqtisodiyoti bilan integratsiyasi yoritilgan. Turaev B (2020). Muallif O'zbekistonda xizmatlar bozori segmentatsiyasi, narxlash va talab

taklif muvozanati masalalarini tahlil qilgan. Sodiqov N (2022). Yangi iqtisodiyotga xos raqamli xizmatlar – fintech, e-commerce va platforma bizneslari haqida to‘liq ma’lumotlar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy tadqiqotda sifat va miqdoriy usullar uyg‘unligida yondashildi. Xususan, statistik ma’lumotlar tahlili, solishtirma tahlil, dinamik o‘rish ko‘rsatkichlarini baholash, grafik ifodalar, ilmiy-adabiy manbalarni o‘rganish va davlat dasturlari asosidagi kontent tahlil metodlari qo‘llanildi. Tadqiqot ob’ekti sifatida O‘zbekiston Respublikasining xizmatlar sohasi tanlandi, predmeti esa 2018–2025 yillar davomida ushbu sohaning rivojlanish sur’atlari, tarkibiy o‘zgarishlari va iqtisodiy ta’sir omillaridir.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining YIMdagi ulushi 2018-yilda 35% atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yil yakunlariga kelib bu ko‘rsatkich 45% dan oshdi. Ayni vaqtda, xizmatlar sohasining umumiy hajmi 2018-yildagi 19 milliard AQSh dollaridan 2024-yilga kelib 65 milliard dollarga yetdi. 2025-yil uchun esa bu raqamning 82 milliard dollarga yetishi va 15 foizlik o‘rish sur’ati kuzatilishi prognoz qilinmoqda.

Savdo, transport, aloqa va turizm xizmatlari asosiy ulushni egallagan bo‘lib, bu yo‘nalishlarda yillik o‘rish 8–12% atrofida bo‘lmoqda. Raqamli xizmatlar bozori esa yanada jadal sur’atlar bilan o‘rib, innovatsion xizmatlar ko‘lami kengaymoqda. Ayniqsa, elektron tijorat, mobil to‘lov tizimlari va IT outsourcing sohalarida yirik natijalar qayd etildi. Shu bilan birga, xizmatlar sohasida ayrim tizimli muammolar ham mavjud: kadrlar malakasining pastligi, normativ-huquqiy bazaning ba’zi jihatlarda eskirganligi, hududlar bo‘yicha xizmatlar sifati va qulayligida katta tafovutlar borligi, raqobat muhitining to‘liq shakllanmaganligi. Yalpi ichki mahsulot (YIM)dagi ulushiga qaraydigan bo‘lsak, 2018-yil xizmatlar sohasining YIMdagi ulushi 35% atrofida bo‘lgan. 2023-yilda 43.94% ga yetdi. 2024-yilda xizmatlar sohasi YIMning 47.4% ini tashkil etdi va 2025-yilda xizmatlar sohasining YIMdagi ulushi 50% dan oshishi kutilmoqda.

Xizmatlar sohasining umumiy hajmi 2018-yilda 19 milliard AQSh dollari, 2024-yilda 65 milliard AQSh dollarni tashkil qilmoqda. 2025-yilda 82 milliard AQSh dollar bo‘lishi kutilmoqda. Yillik o‘rish sur’atlari 2024-yil Xizmatlar sohasi hajmi 11.4% ga oshdi. 2025-yilga kelib, xizmatlar sohasida 1.5 million aholi doimiy daromadga ega bo‘lgan.

Xizmatlar sohasi O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmida katta ulushni tashkil etadi hamda bandlikni oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston **2025-yil xizmatlar hajmi 64 784,6 mlrd**

soʻmni tashkil etdi, bu esa oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 11,4% oʻsishni anglatadi.

Bu oʻsish quyidagi omillar bilan bogʻliq: Xizmat koʻrsatish sohasidagi korxonalarning koʻpayishi, iqtisodiyotni raqamlashtirish va texnologik rivojlanish, davlat tomonidan koʻrsatilayotgan qoʻllab-quvvatlash choralari, isteʼmol talabining oshishi kabi oʻzgarishlar Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-sonli “Xizmatlar sohasini tezkor rivojlantirish choralari toʻgʻrisida”gi qarori bilan bogʻliq boʻlib, unda xizmatlar sektorining maqsadli rivojlanish parametrlari belgilangan. Xizmatlar sohasining rivojlanish dinamikasi va tarmoqlar boʻyicha hissasi 2025-yil yanvar oyida xizmatlar hajmining oʻsishiga quyidagi tarmoqlar asosiy hissa qoʻshdi:

Moliyaviy xizmatlar hajmi 11 864,5 mlrd soʻmni tashkil etdi (+13,2% oʻsish). Toshkent shahri ushbu xizmatlarning 59% ini taʼminlaydi. Eng yuqori oʻsish Andijon viloyatida (+29%) qayd etilgan. Savdo xizmatlari 10 295,2 mlrd soʻm (+10,2%) boʻlib, chakana savdo 52,7% ni tashkil etdi. Transport xizmatlari hajmi 13 162,4 mlrd soʻm (+8,7%). Umumiy hajmning 49,2% avtomobil transportiga, jumladan 43,5% taksi xizmatlariga toʻgʻri keladi. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5 312,2 mlrd soʻm (+21,6%). Ularning eng katta ulushi kompyuter dasturlash xizmatlariga (41,7%) toʻgʻri keladi.

Boshqa xizmatlar boʻyicha tendensiyalar: taʼlim xizmatlari – +16,0%, mehmonxona va ovqatlanish xizmatlari – +11,1%, tibbiyot xizmatlari – +9,2%, meʼmorchilik va injiniring xizmatlari – +23,6% ga teng.

Kichik tadbirkorlik xizmatlar sohasining 53,7% ini tashkil etadi: 32,5% – kichik korxona va mikrofirmalar hissasi, 73,8% – xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari, 2025-yil yanvar oyida 5 731 ta yangi korxona tashkil etilgan, bu oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 25,8% koʻpdir.

Xizmatlar hajmi eng katta boʻlgan hududlar: Toshkent shahri – 24 931,8 mlrd soʻm (38,5% ulush), Samarqand viloyati – 4 573,2 mlrd soʻm (7,1%), Fargʻona viloyati – 4 241,6 mlrd soʻm (6,5%), Toshkent viloyati – 4 283,7 mlrd soʻm (6,6%), eng past xizmatlar hajmi Sirdaryo viloyatida – 852,9 mlrd soʻm (1,3%).

1-jadval

Xizmatlar sohasining asosiy koʻrsatkichlari (2024-yil holatiga koʻra)¹

Hududlar nomi	Hajmi soʻmda)	(mlrd	Ulushi (%)	Oʻsish (%)	surʼati
Oʻzbekiston Respublikasi	818 428,3		100,0	112,9	
Qoraqalpogʻiston	28 820,8		3,5	110,6	

¹ <https://stat.uz/uz/> maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Respublikasi			
Andijon	41 807,5	5,1	113,1
Buxoro	34 495,1	4,2	111,2
Jizzax	20 069,5	2,5	113,8
Qashqadaryo	43 255,9	5,3	110,9
Navoiy	20 055,6	2,4	112,1
Namangan	43 090,6	5,3	112,3
Samarqand	58 875,7	7,2	114,1
Surxondaryo	28 505,9	3,5	110,9
Sirdaryo	11 609,1	1,4	112,2
Toshkent viloyati	56 317,9	6,9	112,8
Fargʻona	55 200,7	6,7	112,3
Xorazm	28 262,0	3,5	112,0
Toshkent shahri	298 825,6	36,5	116,8

2024-yilda, O‘zbekiston Respublikasida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 818 428,3 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati yildan-yilga ortib borayotganini ifodalaydi. Umumiy o‘shish sur‘ati esa 112,9% ni tashkil etib, sektorning barqaror rivojlanish sur‘atlarini namoyon qiladi. Hududlar kesimida eng yuqori xizmatlar hajmi Toshkent shahrida kuzatildi – 298 825,6 mlrd so‘m, bu esa mamlakat bo‘yicha umumiy xizmatlar hajmining 36,5% ini tashkil etadi. Toshkent shahri nafaqat eng yirik xizmatlar markazi, balki 116,8% ko‘rsatkich bilan o‘shish sur‘ati bo‘yicha ham yetakchi hisoblanadi. Bu holat shahardagi infratuzilmaning rivojlanganligi, aholining zichligi, xizmatlarga bo‘lgan talab va biznes muhitning faolligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, Samarqand (7,2%), Farg‘ona (6,7%) va Toshkent viloyati (6,9%) xizmatlar ulushi bo‘yicha yuqori o‘rinlarni egallagan. Ayniqsa, Samarqand viloyatida 114,1% o‘shish sur‘ati qayd etilgan bo‘lib, bu mintaqadagi turizm, transport va ijtimoiy xizmatlar sektorining kengayib borayotganidan darak beradi.

Ayni vaqtda, Sirdaryo (1,4%), Jizzax (2,5%) va Navoiy (2,4%) viloyatlari xizmatlar hajmi bo‘yicha past ulushga ega bo‘lib, bu hududlarda xizmatlar sektori boshqa sohalarga nisbatan kamroq rivojlanganini ko‘rsatadi. Biroq Jizzax viloyatida 113,8% o‘shish sur‘atining qayd etilgani xizmatlar sohasi istiqbolli yo‘nalishlardan biri ekanligini anglatadi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi turlari²

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	818 428,3	100,0	112,9
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	56 174,2	6,9	125,8
Moliyaviy xizmatlar	135 509,5	16,5	120,6
Transport xizmatlari	145 124,4	17,7	108,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	72 604,7	8,9	112,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	183 314,5	22,4	110,6
Savdo xizmatlari	149 599,8	18,3	111,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	20 633,1	2,5	113,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	30 036,5	3,7	113,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	15 778,7	1,9	109,4
Ijara xizmatlari	9 707,6	1,2	105,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	11 848,2	1,4	112,3
Shaxsiy xizmatlar	15 462,0	1,9	109,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	11 200,6	1,4	103,9
Boshqa xizmatlar	34 039,2	4,2	107,9

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'rin tutib, aholi bandligini oshirish, turmush sifatini yaxshilash va resurslardan samarali foydalanishga hissa qo'shadi. Globallashuv va texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan xizmatlar innovatsiyalar, samaradorlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlik uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xizmatlar sohasi ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlashga, davlat, biznes va aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'sishini rag'batlantiradi.

2024-yilda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri sifatida faol rivojlanganini kuzatish mumkin. Umumiy xizmatlar hajmi 818 428,3 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 112,9% o'sish sur'atini qayd etdi. Bu esa xizmatlar sektorining makroiqtisodiy barqarorlik va yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Soha turlarini tahlil qilar ekanmiz, transport xizmatlari (145,1 trln so'm), savdo xizmatlari (149,6 trln so'm), moliyaviy xizmatlar (135,5 trln so'm) va ayniqsa yashash va ovqatlanish xizmatlari (183,3 trln so'm) eng yirik yo'nalishlar sifatida

² <https://stat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

ajralib turadi. Ayniqsa, yashash va ovqatlanish xizmatlari umumiy hajmning 22,4% qismini tashkil etib, bu turizm va ijtimoiy infratuzilma bilan bog'liq xizmatlarga talab oshayotganini anglatadi. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari sohasida esa 125,8% o'sish sur'ati qayd etilib, texnologik modernizatsiya va raqamli infratuzilmaga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortganini ko'rsatadi. Bu raqamli iqtisodiyotning tez sur'atlar bilan rivojlanayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, me'morchilik, muhandislik va texnik tahlil xizmatlari kabi yuqori malaka talab etuvchi yo'nalishlarda nisbatan past o'sish sur'ati (103,9%) kuzatilgan bo'lib, bu yo'nalishda innovatsion va ilmiy-texnik salohiyatni rivojlantirish ehtiyojini ko'rsatadi.

Xizmatlar sohasining yuqori o'sish sur'atlari va tarkibiy xilma-xilligi O'zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyalashayotganini, ichki bozor ehtiyojlariga faol moslashayotganini ko'rsatadi. Tahlil natijalari shuni anglatadiki, xizmatlar sohasi yurtimizda bandlikni oshirish, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va xalq farovonligini ta'minlashda yetakchi omillardan biriga aylanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda xizmatlar sohasi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, bandlik darajasini oshirish va yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) xizmatlar ulushini ko'paytirish nuqtai nazaridan strategik ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda sohada sezilarli o'sish sur'atlari kuzatilgan bo'lsa-da, bu yo'nalishda hal etilishi lozim bo'lgan bir qator tizimli muammolar mavjud. Avvalo, xizmatlar sohasi bo'yicha hududlararo nomutanosiblik jiddiy muammo bo'lib qolmoqda.

Bundan tashqari, kadrlar malakasi va til kompetensiyasi muammosi ham xizmatlar eksportining rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'lmoqda. Shunga qaramay, xizmatlar sohasida keng ko'lamli imkoniyatlar ham mavjud.

Xizmatlar sohasi O'zbekistonda aholini band qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa xizmatlar sohasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini anglatadi. Umuman olganda, xizmatlar sohasi O'zbekistonda yuqori iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, hududiy nomutanosiblikni kamaytirish, raqamli infratuzilmani kengaytirish va malakali kadrlar tayyorlash orqali bu soha mamlakat iqtisodiyotining barqaror drayveriga aylanishi mumkin.

Xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun yuqori qo'shilgan qiymatga ega xizmatlar ulushini oshirish, axborot texnologiyalari va moliyaviy xizmatlarni qo'llab-quvvatlash, xizmatlar sifati va xalqaro raqobatbardoshligini oshirish, hududlar kesimida teng rivojlanishni rag'batlantirishga e'tibor qaratish zarur.

Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning zamonaviy drayveri sifatida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, raqamlashtirish va innovatsiyalar, iste'mol talabining oshishi, infratuzilma loyihalari rivojlantirishga e'tibor qaratish zarur.

Xulosa qilib aytganda, xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotning asosiy dvigateli sifatida mamlakatlarning global raqobatbardoshligini oshirishda, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, ushbu sohani qo'llab-quvvatlash, sifat va samaradorlikni oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish uchun keng ko'lamli strategiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Xizmatlar sohasi nafaqat iqtisodiyotning, balki butun jamiyatning farovonligi va barqarorligi yo'lida muhim omil bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-maydagi PF-5992-sonli Farmoni – “2020–2023-yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni – “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida”.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. <https://stat.uz> – “Xizmatlar sohasi bo'yicha yillik statistik byulletenlar”, 2018–2024 yillar.
4. Karimov T., Raximov A. *Xalqaro iqtisodiy munosabatlar*. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2021. – 320 b.
5. Turaev B. *Xizmatlar bozori va uning iqtisodiy mexanizmlari*. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020. – 256 b.
6. Sodiqov N. *Raqamli xizmatlar va ularning iqtisodiy samaradorligi*. – Toshkent: “IQTISOD-INVEST”, 2022. – 210 b.
7. Sharipova M. “Xizmatlar sohasining O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni” // *Iqtisodiyot va innovatsiyalar ilmiy jurnali*, 2023, №3 (45). – B. 55–63.
8. Jahon banki (World Bank). *Uzbekistan Economic Update: Navigating Uncertainty* – Washington, 2023. <https://worldbank.org>
9. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP). *Service Sector Transformation in Uzbekistan: Trends and Policy Recommendations*. – New York/Tashkent, 2022.
10. Xamidova M. “Xizmatlar sektorida raqamli texnologiyalar joriy etish yo'nalishlari” // *Innovatsion rivojlanish va iqtisodiy barqarorlik ilmiy-amaliy jurnali*, 2022, №2. – B. 34–41.